



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№8 (794), 2025-yil 2-may

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Xushxabar

ZARMITANDA YANGI SKIPLI STVOL ISHGA TUSHIRILDI

Joriy yilning 30-aprelida Janubiy kon boshqarmasining “Zarmitan” sanoat maydonida Skipli stvol - zamonaviy muhandislik inshooti foydalanishga topshirildi.

“Zarmitan” konining quyi gorizontlarini nolinchi metrgacha o'zlashtirish investitsion loyihasi asosida qiymati qariyb 50 million AQSh dollariga teng bo'lgan yangi muhandislik majmuasining tantanali ochilish marosimida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Unda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Boshqaruv raiisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirining o'rinbosari U.Yusupov, Samarqand viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Abilovlar keyingi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va tog'-kon sanoatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda yangilanishlar haqida to'xtalib o'tdilar.

Q.Sanaqulov Skipli stvol – zamonaviy muhandislik inshooti foydalanishga topshirilishini tarixiy voqea deb atadi.

– Avvalo, siz, azizlarni nafaqat kombinatimiz, balki Yangi O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati tarixida muhim voqea – Skipli stvolni ishga tushirishi bilan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etaman. Barchangizga ma'lumki, mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar, yangilanish va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan islohotlar boshqa sohalar bilan bir qatorda kon-metallurgiya sanoati korxonalari ham yuksalish bosqichiga olib chiqmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan “Qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirish” dasturi doirasida keyingi sakkiz yilda umumiy qiymati 3 milliard AQSh dollari bo'lgan 24 ta yirik investitsion loyihani ishga tushirdik. – Shuni alohida ta'kidlab o'tishim kerakki, – deya o'z nutqini davom ettirdi kombinat rahbari, – kombinatda investitsiya loyihalarini jadallashtirish evaziga 2026-yilgacha mo'ljallangan dastur ijrosini muddatidan oldin – 2024-yilda bajarishga erishdik. Shuningdek, dasturda belgilangan ishlab chiqarishni qo'shimcha 32,2 foizlik natija bilan bajardik va davlatimiz xazinasiga qo'shimcha 26 tonna oltin berildi. Nasib bo'lsa, joriy yilda 98 ton-

na oltin beramiz!

Quvondiq Sanaqulov, bu raqamlarni so'zda aytish oson, ammo uning zamirida juda katta mashaqqatli mehnat yotganligi, barcha hamjihat bo'lib, aql va bilimni, tajriba va kuchini birlashtirsa, har qanday qiyinchiliklarni yengib o'ta olishiga ishonishini ta'kidladi.

– Men har safar Zarkentga kelganimda, – deya so'zini davom ettirdi. Q.Sanaqulov, – bugungi zamonaviy ko'rinishdagi qo'rg'onni bundan 10-15 yil avvalgi Zarkent bilan solishtiraman. Hozirgi Zarkent bilan oldingisining osmon bilan yercha farqi bor. Bu joylarni obod maskanga aylantirish uchun qancha mehnat qilinganligini tadbirimizda ishtirok etayotganlarning ko'pchiligi yaxshi eslaydi. Bugun ishga tushirilayotgan Skipli stvol ham O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati tarixida yangi bosqichni boshlab beradi. Mazkur inshoot o'zining ilg'or muhandislik-qurilish, innovatsiya va raqamli yechimlari asosida barpo etilganligi bilan noyobdir. Chexiya Respublikasining “Milliy shax-taqurilish kompaniyasi” bilan hamkorlikda ishga tushirilayotgan mazkur Skipli stvolning chuqurligi 1000 metr, eni 6,5 metr bo'lib, yaqin kelajakda shaxta ma'danlarini qazib chiqarish quvvati yiliga 1,4 million tonnaga yetkaziladi.

Kombinat bosh direktori so'zining yakunida Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlarini bugungi yutuq bilan tabriklab, sharafli va mas'uliyatli faoliyatida kuch-g'ayrat tiladi.

Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri B.Islomovning konchilar, quruvchilar va muhandislarga yo'llagan tabrigini vazir o'rinbosari U.Yusupov o'qib eshittirdi.

Shundan so'ng so'z olgan Samarqand viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Abilov ta'kidlaganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda metallurgiya sanoatini rivojlantirish bo'yicha tizimli va keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada sohada qazib olingan resurslarni qayta ishlash, ulardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashdi. Qo'shrabotning iqtisodiy-ijtimoiy rivojida “Navoiy



kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining o'ri beqiyos. Kombinatsning hududdagi kon boshqarmasi tizimida bugungi kunda qariyb 6 ming nafarga yaqin kishi ishlaydi. So'nggi yillarda qator investitsiya loyihalarini amalga oshirilib, yangi liniyalar ishga tushirildi, borlari modernizatsiya qilindi. Bugun foydalanishga topshirilayotgan muhandislik inshootining ishga tushirilishi natijasida o'nlab odamlarning bandligi ta'minlanadi.

Shuningdek, mazkur inshootning qurilish va montaj ishlarida faol ishtirok etganlar taqdirlandi. Oqsoqollar ramziy tasmani kesib, Skipli stvol – zamonaviy muhandislik inshootini ishga tushirdi. Jamoatchilik vakillari ma'danni yer sathiga olib chiqish jarayoni bilan tanishdilar.

– Bu qurilmalar har jihatdan xavfsiz va tejamkor, – deydi Janubiy kon boshqarmasi bosh muhandisi To'lg'in Nizomov. – Shu paytgacha 60 tonna tog' jinsini 2 ta avtosamosvalda yer yuzasiga olib chiqish uchun uch soat vaqt va bir qancha yerosti texnikalari xarajati, yoqilg'i-moylash ma-

teriallari hamda boshqa xarajatlar talab etilgan bo'lsa, “Skipli” tik shaxta stvoliga o'rnatilgan 20 tonnalik bunkerlar orqali shuncha tonna tog' jinsi atigi 6-8 minut vaqt ichida yer yuzasiga olib chiqiladi. Qurilma elektr energiyasida ishlashi hisobiga atrof-muhitga mutlaqo salbiy ta'siri yo'q. Eng muhimi, vaqt va yoqilg'i materiallari sarfi 60-70 foizgacha iqtisod qilinadi.

Mazkur Skipli stvol Markaziy Osiyoda yagona bo'lib, skip va klet ko'tarish qurilmalariga ega. Mazkur ko'tarish qurilmasi ikkita yigirma tonnalik bunkerdan iborat. Ular faqat oltin tarkibli ma'danni yer yuzasiga chiqarishga mo'ljallangan. Harakatlari har xil. Biri tepaga tog' jinslarini olib chiqsa, ikkinchisi bo'sh holda pastga tushadi. Bunker-dozator qurilmasi past qismiga o'lchov tarozilari o'rnatilgan. Ular yordamida bunkerda yuk hajmi 20 tonnaga yetganda yuklash avtomatik to'xtaydi va tepadan bo'sh bunker kelishi kutiladi. “Klet” ko'tarish qurilmasi esa ishchi-xizmatchilar va kerakli ji-hozlarni yer osti gorizontlariga olib tushish hamda

olib chiqishga mo'ljallangan.

Endilikda “Zarmitan” konida yer ostida qazib olinayotgan ma'danlar 240 sathda yig'ilib, markazlashgan holda Skipli shaxta stvoli orqali yer yuzasiga chiqariladi. Kelgusida bosqichma-bosqich pastki gorizontlarni ham o'zlashtirish ishlari olib boriladi. Shu bilan bir qatorda “Zarmitan” koni 10 shaxta stvoli yer ostida chuqurligi 600 metr bo'lgan “Berk” stvolini ishga tushirish loyihasi ham amalga oshiriladi va bu ishlab chiqarish hajmini 15 foizga oshirish imkonini beradi.

Inshootning foydalanishga topshirilishi bayram tantanalariga ulanib ketdi. Zarkent qo'rg'onidagi “Konchi” o'yingohida poytaxtdan kelgan taniqli san'atkorlar – O'zbekiston xalq artistlari G'ulomjon Yoqubov, Abduhoshim Ismoilov, Zulayho Boyxonova va “Farhod” hamda “Nurobod” madaniyat saroylari badiiy havaskorlari ijrosida kuy-qo'shiqlar, raqslar ijro etildi.

Mansur HUSANOV.

■ Bugunning gapi

HAYOTIDAN ROZI ODAMLAR

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Xorazm vohasida ham o'z bo'linmasiga ega. Tuproqqal'a tumani Sarimoy qishlog'ida bosh suv inshooti, shuningdek, “Sarimoy maydoni” payvandlash-mexanika bo'linmasi joylashgan. Bu jamoalar tomonidan Qizilqum sahrosida joylashgan kombinat ishlab chiqarish korxonalari, shu jumladan, Zarafshon va Uchquduq shaharlari aholisiga suv etkazib berish, uchastka jamoasi esa mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan band.

– Sarimoy qishlog'i o'lis va chekka aholi manzillaridan biri. Viloyat va tuman markazidan ancha olisda joylashgan. Lekin katta o'zgarishlar og'ushida. O'n yetti millat vakillari baxtli hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Natijada mahallamiz obod manzillardan biriga aylangan. Buning barchasi davlatimiz rahbari olib borayotgan oqilona siyosatning natijasidir, – deydi “Sarimoy” mahalla fuqarolar yig'ini raisi Dadletmurat Didarov. – Kombinats bosh hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida aholi, yoshlar va xotin-qizlarga ish sharoitlarini yaratib berishga alohida e'tibor qaratgan. Ayni paytda ko'pchilik hamqishloqlarimiz bosh suv inshooti va payvandlash-mexanika bo'linmasida ishlaydi. Bunday g'amxo'rlikdan aholimiz behad minnatdor.

Darhaqiqat, 2021-yilda kombinat tashabbusi bilan ushbu hudud aholisi uchun yangi ish o'rinlari tashkil etish maqsadida, Zarafshon mexanika-ta'mirlash zavodi negizida “Sarimoy maydoni” payvandlash-mexanika bo'linmasi tashkil etilgan edi. Ish faoliyatini 20 ta ish o'rni bilan boshlagan mazkur uchastka bugunga kelib ancha rivojlandi va kengaydi. Natijada ish o'rinlari soni qariyb 80 taga yetdi. Unga aholining ishsiz, bir paytlar migrant sifatida o'zga yurtlarda sarson bo'lib yurgan yoshlar ishga qabul qilindi. – O'tgan yillar mobaynida uchastkada 400 ga yaqin turdagi mahsulot o'zlashtirilib, unda nasoslar uchun ehtiyot qismlari va uzellar, vallar, yarimmuftalar, har

xil turdagi korpuslar, boltlar, gayka va boshqa mahsulotlarni yasash, elektro-gazpayvandlash ishlari bo'yicha har xil hajmdagi konteynerlar, drenaj romlar va



payvandlash usuli bilan detallarni ta'mirlash samarali yo'lga qo'yildi, – deydi “Sarimoy maydoni” payvandlash-mexanika bo'linmasi boshlig'i Timur Iskandarov. – 2024-yilda uchastka ishlab chiqarish quvvati 24 milliard so'mga yetgani yaxshi natija, albatta. Bu, hech shubhasiz, ikki tomon – korxonaga ham, aholiga ham foydali. Ya'ni, ishlab chiqarish hamda ro'zg'orga daromad manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugunga kelib shu yerda ish boshlaganlar o'z kasbining mohir ustasi sifatida shakllanib, metall kesuvchi, tokar, frezalovchi, parmalovchi va boshqa mutaxassislar bo'yicha ish yuritib, dastgohlar



yordamida ishlab chiqarayotgan mahsulotlari bilan kombinat ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Darhaqiqat, bu kabi xayrli ishlarni davom ettirgan holda, yaqinda kombinat rahbariyati tashabbusi bilan uchastka bazasida elektr-ta'mirlash bo'linmasi tashkil etilib, 12 ta yangi ish o'rni yaratildi. Buning uchun sarimoylik ishsiz xotin-qizlar Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodida to'rt oy davomida kasbga o'qitildi. Ish boshlaganiga hal hech qancha vaqt bo'lmagan opa-singillarimiz ish sharoitiga ko'nikib, bunday g'amxo'rlik, davlatimizdan minnatdor.

Ha bugun, jo'shqin Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan korxonada ish qizg'in. Ahil jamoa zimmasiga olgan vazifalarni sidqidildan bajarish yo'lida fidokorona mehnat qilmoqda. Ayniqsa, doimiy ish o'rniga ega bo'lgan sarimoylikning quvonchi cheksiz. Suhbat davomida bunga guvoh bo'ldik.

– Onam bizni ham ota, ham ona o'rnida tarbiyaladi. Oilada hamma ishsiz edi. Shunday kunlarning birida NKMK bo'linmasida xotin-qizlar uchun yangi ish o'rinlari yaratilayotganini eshitib, hujjat topshirdim. Mana hozirda doimiy ish o'ringa ega bo'ldim. Bundan onam, oilamizning xursandchiligi cheksiz. Bunday imkoni-

yatlarni yaratib berayotgan davlatimizga rahmat! Albatta, ishda, hayotda shunga munosib bo'laman. Ha aytmoqchi, ayni paytda Buxoro texnika universitetida 3-kursda o'qiyman. Kelajakdagi orzularim ko'p, – deydi Tovus Mametova.

– O'zbek millatiga mansub vakilman. Lekin, turkman qarindoshlar orasida birga o'sib katta bo'lganman. Otam Xudoybergan og'a ham kombinat tizimida 42 yil ishlab, pensiyaga chiqqan. Sharafli korxonada ishlab topgan oyilgiga bizni voyaga yetkazib, o'qitgan, – deydi suhbatda Tozagul Matniyozova. – Bu baxt menga ham nasib qilganidan xursandman.



Mana ishli bo'lib, oylik olib, ro'zg'orimizga fayz-baraka kirdi.

Bir so'z bilan aytganda, bu yerda faoliyat olib borayotgan va hayotdian rozi opa-singillarimiz qalbida shukronalik tuyg'usi mujassam. Oynajamol Choriyeva, Mehribon Ataniyozova va boshqalar xursandchilik dil izhorlarida shukronalik va minnatdorchiligini bildirdi.

Yana bir gap. Kombinats tomonidan ushbu manzilda joylashgan bo'linmalarni rivojlantirish, kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha ish olib borilmoqda. Bu ham, albatta, sarimoyliklar uchun yana bir imkoniyat bo'ldi.

Abdumajid JO'RAYEV.

■ Xabar

Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2025-yilda Jamoa shartnomasi majburiyatlarini bajarilishi hamda mehnat jamoalarining 2025-2027-yil uchun Jamoa shartnomasini qabul qilishga bag'ishlangan konferensiyasi bo'lib o'tdi.

JAMOA SHARTNOMASI
MAJBURIYATLARI
BAJARILISHI SARHISOB
QILINDI

Bo'linmalardan 400 nafar delegat ishtirok etgan konferensiyada “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yilda Jamoa shartnomasi majburiyatlarini bajarilishi to'g'risida”gi mavzu yuzasidan “Navoiy KMK” AJ Boshqaruv raiisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov va kasaba uyushmasi Kengashi raiisi I.Rahmatovlarning hisobot ma'ruzalari tinglandi.

Ma'ruzachilar o'z chiqishlarida 2024-yilda ishlab chiqarish rejalari bajarilishi, ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, rag'batlantirish, munosib ish sharoitlari yaratilishi bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Shuningdek, kombinatda 2024-yilda mehnat muhofazasi bo'yicha Kelishuvning bajarilishi va 2025-yil uchun mehnat muhofazasi bo'yicha Kelishuvni qabul qilish yuzasidan “Navoiy KMK” AJ Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va ekologiya bo'yicha direktor A.Cherdansev, kombinatda Jamoa shartnomasi majburiyatlarini 2024-yilda bajarilishini tekshirish, 2025-2027-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasiga va kombinat ichki mehnat tartib-qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan “Navoiy KMK” AJ bosh direktorining iqtisod va moliya

bo'yicha o'rinbosari J.Xasanov hamda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati mehnat jamoalarining 2025-2027-yillar uchun Jamoa shartnomasini qabul qilish yuzasidan Kasaba uyushmasi kengashi raiisi I.Rahmatovlarning hisobotlari eshittildi.

– Janubiy kon boshqarmasidan delegat bo'lib ishtirok etayapman. Mening nazarimda bu galgi konferensiyaga tashkiliy jihatdan juda yaxshi tayyorgarlik ko'rilibdi. Ayniqsa, kun tartibidagi mavzular tahliliy jihatdan qayd etib o'tilgan, yutuqlar e'tirof etilgani uning ko'tariniki ruhdan o'tishini ta'minladi, – deydi D.Atabayeva.

Konferensiya kun tartibi muhokamasida delegatlar faol ishtirok etib, o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Muzokara va muhokamalarda ishtirokchilar tomonidan “Navoiy KMK” AJ Jamoa shartnomasining 2024-yilda bajarilishi qoniqarli, deb baholandi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ mehnat jamoalarining 2025-2027-yillar uchun Jamoa shartnomasi bir ovozdan ma'qullanib, tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan qabul qilindi.

Shavkat G'ULOMOV,
NKMK xodimlari kasaba
uyushmasi Kengashi yo'riqchisi.

■ Bugunning gapi

KAMBAG'ALLIKDAN – FAROVONLIK SARI!

yoxud bunda NKMKning faol ishtiroki

Muhtaram Yurtboshimiz “Inson qadri har narsadan ustun”, degan ulug’ g’oyani ilgari surgani bejiz emas. Uning zamirida insonlarni ijtimoiy himoya qilish, g’amxo’rlik ko’rsatishdek ulug’ maqsadlar mujassam. Shu sababli, yurtimizda inson qadriini ulug’lash, yurtdoshlarimizning baxtli-saodatli yashashlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish davlatimiz siyosatining asosiy yo’nalishiga aylandi.

Bu borada keyingi yillarda qator muhim hujjatlar, dasturlar qabul qilinib, ular ijrosi amalda xalqimizni hayotdan rozi qilishga xizmat qilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kambag'al oilalar turmush tarzini yaxshilash uchun “Kambag'allikdan-farovonlik sari!” dasturi amalga oshirilayotgani aholiga yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Zero, kambag'allikni bartaraf etishning to'g'ri va eng samarali usuli, bu – birinchi navbatda aholining daromad manbaini yaratish, bandligi darajasini oshirish va boqimandalik kayfiyatini o'zgartirishdir. Bugun yurtimizda aynan shunga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan kambag'al oilalarni doimiy daromad manbaiga ega bo'lishlariga ko'maklashish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmog'da.

“Kambag'allikdan-farovonlik sari” dasturini amalga oshirishda Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati ham Navoiy viloyatining Nurota, G'ozg'on, Zarafshon, Uchquduq va Tomdi tuman, shaharlariga birkittirilib, davlatimiz rahbari siyosatini amalga oshirish, qolaversa, ehtiyojmand oilalarni aniqlab, ularni kambag'allikdan chiqarish uchun turmush sharoitlarini yaxshilash, daromad manbasiga ega bo'lish, bandligini ta'minlash, sog'lomlashtirish, tibbiy ko'rikdan o'tkazishga yaqindan ko'maklashib kelmog'da.

Aniq tahlillarga tayanadigan bo'lsak, kombinat rahbariyati sa'y-harakati bilan shu kunga qadar yuqoridagi hududlarda xonadonmma-xonadon kirib, aholining yashash tarzi o'rganilib, ehtiyojmand oilalar aniqlanib, ularni ko'llab-quvvatlash bo'yicha xayrli ishlarni amalga oshirmog'da. Jumladan, ehtiyojmand xonadonlarga yirik va mayda shoxli mollar hamda boshqa daromad manbai bilan ta'minlashga ko'maklashmog'da.

Vakillarimiz Nurota tumanidagi xonadonlarni o'rganib, amaliy yordam ko'rsatlayotganidan tuman ahlining xursandchiligi cheksiz. Zero, davlatimiz rahbari boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar samarasi bugun Nurotaning eng og'ir, eng chekka, eng olis hududlariga kirib borayotgani, mas'ullarning mahallama-mahalla, qishloqmaqshloq, ko'chama-ko'cha yurayotgani o'z samarasini berayotgani ayni haqiqatdir.

Jumladan, respublikamiz bo'ylab davom etayotgan “Dolzarb bir oylik” safarbarligi doirasida Nurota tumanidagi mavjud 31 ta mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar hayotini yaxshilash hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'maklashish maqsadida, kombinat

homiyligidagi shunday fuqarolarga 50 bosh sog'in sigirlar buzoqlari bilan, shuningdek, qo'y va parandalar tarqatildi. Shuningdek, aholi xonadonlarini ta'mirlash va qurish ishlari olib borilmoqda.

Nurota tuman hukmirligi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, hududdagi mahallalar yettilligi, nuroniylar, jamoatchilik vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan tadbirida so'z olganlar davlatimiz rahbari olib borilayotgan xayrli ishlar aholi turmush shart-sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirishdan iborat ekanligini e'tirof etishdi.

- Darhaqiqat, bu hayotda har bir inson baxtli, farovon hayot kechirishni orzu qiladi. Afsuski, besh qo'l baravar emas. Qaysidir oilalar mehnati, intilishi bilan taqdirini o'z qo'llari bilan yaratib, farovon, bekamu ko'st yashayotgan bo'lsa, ba'zi bir oilalar turli tashvishlar, yetishmovchilik girdobida kambag'al yashayotgani ham sir emas. Shu bois, yurtimizda “Kambag'allikdan – farovonlik sari!” harakati boshlandiki, bu – yurtdoshlarimizni kambag'allikdan chiqarishga katta turki berdi, - deydi “Nuroniy” jamg'armasi tuman bo'limi raisi Suyun Qulmonov. - Tarixan qisqa – atigi besh yil ichida millionlab vatandoshlarimizning turmush sharoitlari yaxshilanib, fuqarolarimizning kambag'allik darajasini keskin pasaytirishga erishildi. Tahlillarga ko'ra, respublikamizda kambag'allik darajasi yiliga o'rtacha 3 foizga kamayib borayapti. Bunday intilish bilan yaqin vaqtlar ichida O'zbekistonda kambag'allik, degan nisbiy tushuncha bartaraf etilishi, shubhasiz! Bu, albatta, yaxshi natija, e'tirofqa arzigulik ijobiy ko'rsatkichdir. - Bu kabi ezgu sa'y-harakatlar bugun ham hayotimizda eng qizg'in pallaga kirgan. Barcha hududlarda ushbu muhim dastur doirasida keng qamrovli ishlar olib borilayotgani xalqimiz turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bu kabi rag'bat va amaliy yordamlar eng chekka va olis xonadonlargacha yetib borib, odamlarimiz hayotiga quvonch olib kirmog'da. Buni, birgina sog'in sigir olgan xonadon sohiblari quvonchi va shukronaligida ham ko'rish mumkin.

- Bunday qo'llab-quvvatlashdan boshim osmonga yetdi. Bundan foydalangan holda oilaviy daromadlarimizni oshirib, turmush farovonligimizni yaxshilab olishga harakat qilamiz. “Davlat menga hamma narsani qilib berishi kerak”, degan qarashda yashamaslik kerak. Mana endi imkoniyatlardan samarali foydalangan holda harakat qilib, yaxshi hayot uchun imkoniyatlar izlashni maqsad qildim,-deydi Bahrom Mavlonov. - Bu g'amxo'rlikdan viloyat markazidan ancha olisda joylashgan Qizilcha, Temirqovuq, Sentob aholi punktlarida yashovchi bir guruh xonadon egalari

qatorida mahalla faollari ham xursand.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, Navoiy kon-metallurgiya kombinati homiyligidagi kam ta'minlangan, ehtiyojmand va boquvchisini yo'qotgan oilalarning uy-joylari ta'mirlanib, yangidan qurib berilmoqda.

- Uyi borning o'yi bo'lmaydi, deyshadi. Topib aytilgan gap. Yillar davomida uy-joy orzusida yashab, bu so'zning mohiyatini menchalik ko'ngildan his etadigan odam bo'lmasa kerak. Uy-joy shunchaki boshpana emas, u Vatan. Birdan bir orzuim boshpanali bo'lish edi. Ana shu armonlarim ushaldi. Kombinat homiylilik qilib uy qurib berishayapti. Hayotda yaxshi insonlar ham bor ekan. Menday bir onaga qilingan bu yaxshilikni umrbod farzandlarim bilan esdan chiqarmaymiz. Menga qo'shilib tanish-bilishlarim, qo'shnilarim borki, barchasi quvonishdi, - deydi Jongul Melikulova quvonch yoshlari bilan.

“Kambag'allikdan-farovonlik sari” dasturi doirasida olib borilayotgan muhim yo'nalishlardan yana biri, bu – aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirishdan iboratdir. O'rganishlar natijasida aniqlangan va chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik natijasida tibbiy muolajalarga muhtoj, deb topilgan bemorlar hozirgi kunda kombinat sihatgohlarda sog'lomlashtirilib, tibbiy-sanitariya bo'limlarida malakali shifokorlar tomonidan davalanishmog'da.

- Inson dunyoga kelibdiki, baxtli-saodatli yashashni istaydi. Tinch-farovon hayot kechirsam, turmushim bekami-ko'st bo'lsa, deb niyat qiladi, intiladi. Buning uchun albatta, eng muhimi sog'lik ekan. Ancha yildan buyon yurak xastaligi meni bezovta qilib keladi. Malakali shifokorlar ko'magida ancha o'nglanib oldim. Ular menga shirin muomalasi bilan zarur tibbiy yordamlarini berishmog'da. Qalbimda hayotga, kelajakka bo'lgan qiziqishim yanada oshdi, yana umid uchunlarini paydo bo'ldi. Bunday hayajonli vaziyatlarni so'z bilan ifodalashim qiyin, - deydi nurotalik Komuna Odinova.

Bugun davlatimiz shuncha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berayapti ekan, albatta, bunga befarq bo'lmasdan, bu tashabbus va e'tiborga uyg'oq fikr hamda teran tafakkur bilan yondashib, islohotlar jarayoniga daxldorlik hissi bilan yashash, intilishimiz bilan turmushimizni farovon qilish, hayotimizni yaxshilash, xonadonlarimiz obodligi o'z qo'limizda. Buning uchun esa har birimiz harakat qilishimiz, boqimandalik kayfiyatidan voz kezhishimiz kerak. Chunki mehnatsiz, intilishsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun amalga oshirilayotgan har bir islohot, har bir xayrli ish ortida albatta, ehtiyojmand aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash, dardiga darmon bo'lish, ularning muammolariga ijobiy yechim topish, hayot sifatini yaxshilashdek maqsad bor. Zero, “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirishdan asosiy maqsad ham - xalqni rozi qilishdir.

D. KARIMOVA, jurnalist.

■ Цифровизация

В последние годы АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» реализует поэтапную цифровую трансформацию ключевых производственных и управленческих процессов. Стратегия цифровизации направлена на повышение эффективности, прозрачности и устойчивости деятельности предприятия за счёт внедрения современных информационных технологий и автоматизированных систем.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ АО «НГМК»:

уверенный шаг в будущее



В рамках внутренних ИТ-инициатив силами специалистов НГМК разработаны и внедрены корпоративные системы управления транспортом, производственными процессами, финансами, персоналом, материально-техническим обеспечением, энергоресурсами, ремонтами оборудования, а также бухгалтерским учетом. Эти решения охватывают все ключевые участки и позволяют автоматизировать рутинные операции, сократить объём ручного труда, ускорить обработку данных и обеспечить сквозной контроль исполнения задач.

Для нужд геологоразведки и горных работ внедрены специализированные горно-геологические информационные системы. С их помощью создана единая электронная база геологических данных, выполняется цифровое картирование геологических структур, автоматизирован расчет запасов и проектирование горных работ. Также реализованы модули для прогнозирования деформаций бортов карьеров, что особенно важно для обеспечения безопасности на карьерах.

На производственных площадках комбината внедрены автоматизированные системы управления технологическими процессами с использованием технологий искусственного интеллекта и машинного обучения. Эти решения позволяют в режиме реального времени контролировать параметры производства, предсказывать отклонения и минимизировать влияние человеческого фактора. Благодаря этому удалось повысить стабильность процессов, снизить потери и увеличить производительность оборудования.

На открытых золотодобывающих карьерах внедрена система спутникового мониторинга и диспетчеризации, охватывающая самосвалы, буровые станки и экскаваторы. Система обеспечивает точное позиционирование техники, учёт рабочего времени, контроль загрузки и перемещений. Это способствует повышению эффективности логистики и снижению простоев.

В конце 2024 года завершён проект по внедре-

нию аналогичной системы мониторинга на подземном руднике «Зармитан». Решение охватывает как мобильную технику, так и перемещения сотрудников, что значительно повысило уровень производственной безопасности и прозрачности в шахтных условиях.

Одним из приоритетов при цифровизации остаётся обеспечение информационной безопасности. На предприятии внедрены современные решения по защите данных, включая антивирусные системы, межсетевые экраны, системы обнаружения вторжений и предотвращения кибератак. Для повышения осведомлённости сотрудников регулярно проводятся тренинги, курсы и внутренние семинары. Для повышения квалификации специалистов налажено сотрудничество с IT Park г.Ташкента, а также с рядом профильных вузов и обучающих центров.

В сотрудничестве с международными консультантами в 2024 году разработана и утверждена Стратегия цифровой трансформации до 2030 года. Документ определяет приоритетные направления: цифровизация геологоразведки, добычи, переработки руды, автоматизация вспомогательных функций и внедрение современных аналитических инструментов для поддержки принятия управленческих решений.

По итогам 2024 года АО «НГМК» заняло первое место в республиканском рейтинге цифрового развития среди хозяйствующих субъектов Узбекистана, что стало подтверждением эффективности системного подхода к цифровизации.

Реализация цифровых проектов продолжается в соответствии с утверждённой дорожной картой. Основная цель — создание устойчивой и адаптивной цифровой экосистемы, готовой к решению задач любого масштаба в условиях быстро меняющейся промышленной среды.

Руслан ХАЙРУЛЛИН, заместитель начальника Управления ИКТ АО «НГМК».

■ Oramizdagi odamlar

Konlarda ishlash mashaqqati ayollar u yoqda tursin, uncha-muncha erkakka ham oson emas. Ammo xotin-qizlarni og'ir va mashaqqatli kasblardan bo'lgan konchilikda ham uchratamiz.

SHUKRONALIK HISSI BILAN



Nagifa Nazarova 30 yildirki Shimoliy kon boshqarmasi “Sharqiy” ochiq usulda qazib olish konida geologik ishlarda kon ishchisi bo'lib ishlaydi. Nagifa opa va uning jamoasi 5 metr gacha burg'ilangan quduqlardan namunalar olishadi va shu namunalar asosida Markaziy tahlil laboratoriyasi natijalariga ko'ra navlar rejasini tuzilib, ma'dan qazib olish ishlari bajariladi. Ba'zida karyer qaziga tushib maxsus idishlarga namunalar yig'ish erkaklarga ham b'roz qiyinchilik tug'diradi. Nagifa Nazarova o'z ishini uddalashda erkak hamkasblaridan sira qolishmaydi.

Qoqpatas qo'rg'onida tug'ilgan qahramonimiz bolaligidanoq Qizilqum kengliklaridagi qazilma boyliklarni o'rganayotgan geologik-qidiruv ekspeditsiyasi xodimlarining ishini mehr bilan kuzatar, ularga havas qilardi. Maktabni tamomlagach, 17 yoshida “Samarqandgeologiya” birlashmasi Qoqpatas

geologik-qidiruv ekspeditsiyasiga ishg'a kirdi. Keyin Shimoliy kon boshqarmasi kadrlar tayyorlash bo'limida geologik namuna teruvchi shogirdi kasbiga o'qidi. Shunday qilib umrining qariyb o'ttiz yilini kasbiga bag'ishlab kelmog'da.

– Bizning ishimiz nihoyatda aniqlik, puxtalik, tezkorlik va tajribani talab etadi. Chunki har ikki yarim metrdan oladigan namunalarimiz bilan keyingi jarayonlarga start beriladi. Bu ishlarni bir o'zim bajarayotganim yo'q. Yonimda 20 nafardan ortiq shogirdim bor. Ularga kasb sirlarini o'rgatib kelyapman. Dunyoda oson ishini o'zi yo'q, har bir yumushning mashaqqati bor. Konda ishlash insondan katta matonat talab qiladi. Hamma faslga bu yerda ochiqda ish davom etadi. Qishning qirovli kunlarida qumlar ham muzlab qoladigan kunlar bo'ladi, - deydi u. Qizig'i, Nagifa opa bularning barini og'ir va xavfli ish deb og'rinib emas, balki g'ayrat va fidoyilik bilan bajaradi.

Ertalab ishg'a, kechqurun uyga shoshadigan odam dunyodagi eng baxtli kimsadir. Har kuni uyidan 30-40 kilometr uzoqlikdagi korxonasiga borib kelarkan, Nagifa opa o'zi ham shukr qiladi, atrofda qilarga ham shu shukronalikni yuqtiradi.

O'zbekiston oltin, uran, mis kabi strategik ahamiyatga ega metallarning zaxiralari va qazib olish hajmi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Bunda ShKbda mehnat qilayotgan 200 nafardan ortiq geologlar, jumladan, “Sharqiy” ochiq usulda qazib olish koni Geologiya-geofizika byurosi geologik ishlarda kon ishchisi Nagifa Nazarovaning ham ulushi bor.

Laylo KARIMOVA.

■ Dolzarb mavzu

INNOVATSIYA – BU KELAJAKDIR

Butun dunyo kompaniyalari hozirgi globallashuv davrida innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati ham bundan mustasno emas. Prezidentimizning innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etishni rag'batlantirish, shuningdek, tijoratlashtirish samaradorligini oshirish va ilmiy, ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyat natijalaridan foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qabul qilgan farmon va qarorlari esa “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati uchun dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu haqda “NKMK” AJning Innovatsion rivojlantirish departamenti Ilmiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqarish va “O'zbekiston konchilik xabarnomasi” jurnali tahririyati guruh rahbari Nargiza Kamolova quyidagilarni gapirib berdi.

– 2018-yilda tashkil etilgan Yangi texnologiyalarni joriy etish innovatsion markazi faoliyatini davomida yaxshi natijalarga erishdi. Korxonamizda hozirgi kunda 22 nafar fan nomzodi va 9 nafar fan doktori faoliyat ko'rsataypti. So'nggi o'n yilida kombinatning yuksak ilmiy salohiyatiga ega mutaxassislari tomonidan yaratilgan 37 ta ixtiro patent bilan himoyalandi. Jumladan, 34 tasi O'zbekiston Respublikasi, ikkitasi Shveysariya va Germaniyadagi Patent kooperatsiya to'g'risidagi shartnoma bo'yicha xalqaro patent talabnomasiga muvofiq bajarildi hamda yana biri Rossiyaning intellektual mulk federal xizmati tomonidan qo'lga kiritildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati mutaxassislari “Oltin-mishyakli, ishlarni qiyin bo'lgan sulfidli rudalardan oltin ajratish usuli” mavzusidagi ixtirosi uchun 2017-yilda BMT huzuridagi Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “Oltin medali” bilan taqdirlandilar. Kombinativimizning 3-gidrometallurgiya

zavodida uni qo'llash ma'dandan oltin ajratib olish darajasini 13 foizga, tayyor mahsulot hajmini esa 10 foizga oshirish imkonini berdi.

Kombinatimiz ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari qatnashgan investitsiyalar hajmi, shuningdek, faoliyatga kiritilgan istiqbolli ishlarni rivojlanish va ratsionalizatorlik takliflari soni bo'yicha respublikada yetakchi hisoblanadi. Bizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy ishlarni rivojlanishning yangi modelini izlamog'da. Bu nihoyatda murakkab jarayon. Avvalo, har qanday mulk shaklidagi tashkilotning raqobatbardoshligini aniqlaydigan ratsionalizatsiya tushunchalarining mazmunini oych berish kerak, ratsionalizatsiya esa bu – “korxona va tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi texnik yechimlar”dir. Zamonaviy iqtisodiyotda ratsionalizatsiya nafaqat korxonalarni qo'shimcha rivojlantirish



vositasi, balki xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishning eng muhim tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi.

“NKMK” AJ bo'linmalarida ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi, yoshlarning texnik ijodiyotini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, har yili “Eng yaxshi ratsionalizator” tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Tanlovda 10 ta yo'nalish bo'yicha g'oliblar aniqlanmoqda.

2018-2024-yillarda kombinat mutaxassislarning 1253 ta ratsionalizatorlik taklifi yuzasidan ijobiy qaror qabul qilinib, ishlab chiqarishga joriy etilgan. Amaliyotga tatbiq etilgan ratsionalizatorlik takliflaridan 556,2 milliard so'm iqtisodiy samara olindi. Birgina 2024-yildagi 202 ta ratsionalizatorlik takliflaridan 101 milliard so'mlik iqtisodiy samara olish ko'zda tutilmoqda.

“NKMK” AJ portalida “Ratsionalizatorlik faoliyati” rukni ostida yagona ma'lumotlar bazasi yaratildi. “NKMK” AJning har bir xodimi yil davomida

barcha ratsionalizatorlik takliflari, ratsionalizatorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar, “Eng yaxshi ratsionalizator” ko'rik-tanlovi natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari markazimizda har chorakda nashr etib borilayotgan “O'zbekiston konchilik xabarnomasi” ilmiy-texnik jurnalida respublikamizdagi kon-metallurgiya yo'nalishidagi ilmiy maqolalar va yangiliklar keng miqyosda yoritib boriladi.

Markazda har yili ishlab chiqarishda hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar “NKMKni Innovatsion rivojlantirish dasturi”ga kiritiladi. Respublikamizdagi bir qator ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Habib Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, Mineral resurslar ilmiy-tekshirish instituti, “O'zGEORANGMETLITI”, I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti hamda boshqa xalqaro oliy ta'lim, ilmiy-tekshirish institutlari bilan hamkorlikda dasturga kiritilgan muammolar o'z yechimini topmog'da.

Bir so'z bilan aytganda, innovatorlar jamiyatning ijtimoiy faol elementi yoki uning harakatlantiruvchi kuchi sifatida iqtisodiy jarayonlarning dinamikasini belgilaydi. Kombinat rahbariyatining yangiliklar yaratish yo'lida ularni doimiy qo'llab-quvvatlab kelayotgani esa kon-metallurgiya sohasini yil sayin rivojlanib borishiga salmoqli hissa qo'shayapti.

Innovatsiya — bu iqtisodiy o'sish, demakki, ijtimoiy farovonlik va jamiyat rivoji garovidir. Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekiston va aynan kombinat esa mana shunday katta yo'l boshidadir.

A.AXMEDOVA suhbatlashdi.

■ Islohot

DUAL TA'LIMI QO'LLANILMOQDA

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim tizimiga dual ta'lim tushunchasi keyingi yillarda kirib keldi. Bugungi kunda "Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJda ham "Kasb egasi" dual ta'lim asosida yosh kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida konchilik va metallurgiya sohasining barcha bo'g'inlari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Ya'ni ma'danni qazib olishdan boshlab toki tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan jarayonlar bo'yicha muhandis va mexaniklar, energetik va iqtisodchilar, mashinasozlar va kimyoviy texnologlar kabi kasblarda nazariy bilim beriladi.

Joriy yilning 16-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori qabul qilingandan so'ng, "NKMK" AJ tomonidan ham Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 4-bosqich talabalarining dual ta'lim bo'yicha amaliyoti tashkil etila boshlandi. Kombinat kon boshqarmalarining mas'ullari ishtirokida universitetda o'tkazilgan uchrashuvda turli yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar suhbat asosida ishga qabul qilindi.

Bugungi kunda Markaziy kon boshqarmasida 150 nafar talaba dual ta'lim asosida onlayn o'qib, boshqarma bo'linmalarida o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. Ularga korxona tomonidan makolali ustozlar birlashtirilgan. Nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlayotgan talabalar bevosita ishda qo'llanadigan amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishmoqda.

– Yurtimizda biz yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida katta ishlar olib borilmoqda, – deydi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Texnologik jarayonlar va

ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish" yo'nalishi 4 - bosqich talabasi Ma'murjon Nayimov. – Ana shunday imkoniyatlardan biri bu, dual ta'lim asosida o'qishni davom ettirishdir. Men suhbat orqali Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Temir yo'l transporti boshqarmasiga ishga qabul qilindim. Bundan juda xursand bo'ldim. Chunki, o'tgan yili yozgi amaliyotni ham mazkur boshqarmada o'tkazganman. Boshqarma jamoasi ahil, biz kabi yosh kadrlarni doimo qo'llab-quvvatlab keladi. Hozirgi vaqtda "Muruntov" bekatida faoliyat olib borayapman. Ustozim, elektromexanik Bekzod Tangatov bizga birinchi navbatda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda ishlashimiz kerakligini uqtiradilar. Biz temir yo'llarda qo'yilgan belgilarni doimo soz holatda qo'lishni nazorat qilib, nosozliklarni o'z vaqtda bartaraf qilish ishlarini o'rganayapmiz.

Farrux Jo'raqulov ham dual ta'lim tizimi asosida "Muruntov" konida faoliyat olib borayotgan yoshlardan biri. – Bola-ligimdan konchilik sohasiga qiziqqanligim bois Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Konchilik elektr mexanikasi" yo'nalishiga o'tqishga kirdim. Mamlakatimizda biz yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda, ayni vaqtda ham o'qib, ham ishlayapman. O'quv markazida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha ta'lim olgandan so'ng "Muruntov" konining burg'ilash uskunalari ta'mirlash uchastkasiga elektrchilangar bo'lib ishga qabul qilindim. Kon haqida tasavvurga ega emasdim. Bu yerga ishga kelib kon qanchalik katta



ekanligi va ulkan kon texnikalarining tinimsiz ishlayotganiga guvoh bo'ldim. Jamoamizda ustoz-shogird an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, jihozlarni ta'mirllovchi navbatchi elektrchilangar Alijon aka Axtamovga shogirdman. Ustozimdan burg'ilash uskunalarining elektr jihozlarni ta'mirlash ishlarini o'rganayapman. Kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lishimga imkoniyat yaratib bergan kombinat va kon boshqarmasi ma'muriyatiga minnatdorchilik bildiraman, – deydi F.Jo'raqulov.

Zarafshon ta'mirlash mexanika zavodi kombinat ishlab chiqarish obyektlarining ish sur'ati va quvvatlarini oshirib, bir maromda ishlashi uchun alohida o'ranga ega. Bu yerda bo'linmalar va gidrometallurgiya zavodlarining sorbsiyasi, regeneratsiya va maydalash sexlaridagi asosiy texnologik uskunalarni ta'mirlash, montaj qilish, ehtiyot qismlar hamda metall konstruksiyalarni tayyorlash, gazsimon atsetilin, kislorod, azot va suyuq azot bilan ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Zavodda import o'rmini bosuvchi tovarlarni mahalliyashtirish bo'yicha tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa konmetallurgiya sohasidagi bilimlarni puxta egallagan g'ayratli, har qanday murakab vazifalarni bajarishga qodir, yuksak salohiyatli mahalliy yoshlarga ehtiyoj oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu haqida zavod kadrlar xizmati boshlig'i Nargiza Rahimova shunday deydi:

– Zavodimizga joriy yilda dual ta'lim asosida ishga qabul qilingan 14 nafar talaba tokar, ta'mirllovchi-chilangar, elektrgazpayvandchi, montajchi, qo'r-g'oshin-qalay qotishmalarini quyuvchi kabi kasblarda ish faoliyatlarini olib borishmoqda. Ularning ayrimlari 2024-yil yozgi amaliyotini zavodimizda o'taganliklari bois ancha ko'nikmalarga ega. Talabalar ustozlari bilan birgalikda kon boshqarmasi bo'linmalaridan kelgan buyurtmalar asosida nasoslarni yig'ish, ehtiyot qismlarni yasash, texnologik usku-

nalarni montaj qilish kabi ishlarini bajar-moqda. Kelgusida ulardan zavod uchun kerakli mutaxassislar yetishib chiqishiga ishonamiz.

– Dual ta'lim nima? U standart o'qitish tamoyillaridan qanday farq qiladi? Ushbu ta'lim jarayonining qanday ijobiy tomonlari bor va nega ko'pchilik mamlakatlar uchun bu ta'lim namunali hisoblanadi? O'zbekistonda ham bu ta'lim yo'nalishiga o'tishdan maqsad nimaligiga qiziqdik. O'rganishlar natijasida ushbu tizim hozirda Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Janubiy Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ranga ega ekanligini anglab yetdik, – deydi suhbatdoshimiz, "Mashinasozlik texnologiyasi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi Jahongir Oblaqlulov.

Avval talabalar bo'sh vaqtlarida turli sohalarda, asosan savdo-sotiq, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda ishlash daromad topgan bo'lsa, dual ta'lim tizimida o'z yo'nalishi bo'yicha ham o'qib, ham ishlab mablag' topayotgani ahamiyatlidir. Kombinat tizimida ishga qabul qilingan bu talabalarga ayni vaqtda ish joyiga qatnashi uchun korxona tomonidan transport ajratilgan, tushlik tashkillashtirilgan va oylik maosh ham to'lanmoqda. Asosiysi esa, korxonalarda o'rnatilgan eng zamonaviy dastgohlarda ishlashni o'rganishgan, korxonaning mehnat jamoasi va ish uslubi bilan yaqindan tanishgan, ish sharoitiga moslashgan talabalar bitirgandan so'ng shu korxonaga ishga qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa korxona va talabaga manfaatli bo'lib, konchilik va metallurgiya sohalariga zamonaviy makolali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Nafosat ZIYOYEVA, Aziza IRISOVA.

Behruz JALOLOV olgan suratlar.

■ Davlat dasturi – amalda!

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturini amalga oshirish uchun belgilab olingan 5 ta bo'lim va 32 ta banddan iborat chora-tadbirlar bajarilishiga 46,6 mlrd so'm va 13,2 mln AQSH dollar sarflanishi ko'zda tutilgan.

“YASHIL BELBOG”LAR KENGAYMOQDA

Respublika davlat dasturida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJga bir qator vazifalar yuklangan. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 4-ilovasi 8-bandida "NKMK" AJ tomonidan ESG hisobotlarini yuritish amaliyotini yo'lga qo'yish va jamoatchilikka oshkor etish, ESG-reytingini olish hamda 12-bandida "Muruntov" konini o'zlashtirish investitsiya loyihasing navbatdagi bosqichlarini amalga oshirish belgilangan.

2025-yilning fevral oyida kombinatga "Sustainable Fitch" xalqaro reyting agentligi tomonidan ilk bor korporativ ESG-reytingi berildi va "NKMK" AJ O'zbekiston tog'-kon sanoatida ESG-reytingini olgan birinchi kompaniya bo'ldi. Bu, kompaniyaning sohada yetakchiligi, barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilinishi hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarining ulkan jamoa faoliyati integratsiya qilinganligini to'la aks ettiradi.

Kombinat rejasida ekologik masalalarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda atrof-muhitni asrash, yashil maydonlarni kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari-dan foydalanish kabi dolzarb yo'nalishlar o'z aksini topgan. Shunga muvofiq ko'chat ekish, bog' yaratish, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, korxonalar va sanoat

zonalari atrofini "yashil belbog"lar bilan iho-tazorlashtirish ishlari ommaviy harakatga aylandi.

– Bu yilgi bahor mavsumida kombinat ishchi-xodimlari ishtirokida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hudud tuproq va iqlimiga mos 21 turdagi, umumiy sum-masi 1,9 mlrd. so'm bo'lgan 300 ming tup-dan ortiq manzarali va mevali daraxt ham-da buta ko'chatlari ekilib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi samarali tashkil etildi, – deydi kombinat korporativ ijtimoiy mas'uliyatlar bo'limi xodimi G'ayrat Bozorov. – Bundan tashqari, kombinat ko'magida bir qator hududlarda "yashil belbog"lar va bog'lar barpo etildi. Xususan, 1-gidrometallurgiya zavodining chiqindi saqlash ombori sanitar himoya hududi, 3-gidrometallurgiya zavodi hududi, shuningdek, kmbinat ko'magida Karmana tumani hududidan o'tuvchi M-37 avtomobil yo'li atrofida, G'ozg'on shahridagi "Marmarobod", Nurota tumani "Yangibino" MFY hududlarida bog'lar, "yashil belbog"lar tashkil etilib, hasharlarda ishchi-xodimlar bilan birga, yoshlar vakillari ham faol ishtirok etishdi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun ko'pming kishilik kombinat jamoasi tomonidan "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Dildora TO'LQINOVA.

■ Xa6ap

SUVDAN MAQSADLI FOYDALANISH YO'LIDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari hamda mutaxassislari tomonidan olib borilgan qator ilmiy izlanishlar o'zining samarasini bermoqda.



Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tarkibida 2021-yilda "Suv ta'minoti muammolarini yechish" laboratoriyasi tashkil etilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Laboratoriya keyingi yillarda 20 dan ortiq kimyoviy elementlarni aniqlashga mo'ljallangan atom-absorbsion analizatori, eritma tarkibidagi loyqalik darajasini aniqlash uchun mutnomer asbobi, spektrofotometr, elektron tarozi, kuydirish pechi, distillator kabi uskunalar bilan ta'minlandi.

– Shuningdek, bugungi kunda kombinat gidrometallurgiya zavodlarining chiqindi saqlash xo'jaligida texnik suvni tozalash va ularning ekologik qayta ishlash yo'lida suv o'tlaridan foydalanishni boshlashni rejalashtirdik, – deydi laboratoriya boshlig'i Shavkat Salimov. – Tahillilar shuni ko'rsatmoqdaki, azola, pistiya va exorniya kabi suv o'tlari bo'tanadagi zararli metallar va turli kimyoviy zaharli moddalarni o'zlashtiradi. Shu bilan birga, kelgusida ushbu suv o'tlarini quritib, ulardan ekin yerlariga o'g'it sifatida ham foydalanish mumkin.

Mazkur laboratoriya tarkibida kimyoviy, spektral va radiologik tahlil hamda texnologik tadqiqotlar guruhlari ish olib boradi. Bugungi kunda sohaning 10 nafar mutaxassisi faoliyat yuritayotgan laboratoriyada gidrometallurgiya zavodlarida ishlatilayotgan texnik suvning qariyb teng yarmini qayta tozalab, ishlab chiqarishga yo'naltirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa suvdan maq-sadli va oqilona foydalanishga yo'l ochadi.

Azamat ZARIPOV.

■ "Qizilqum san'at g'unchalari - 2025"



Iste'dodli yoshlar kashf qilindi

Navoiy shahrining "Farhod" madaniyat saroyida joriy yilning 17-20-aprel kunlarida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "NKMK jamg'armasi" DM, "Navoiyuran" DK va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati madaniyat muassasalari ijodiy jamoalari o'rtasida "Qizilqum san'at g'unchalari - 2025" XVII bolalar festival-tanlovi bo'lib o'tdi.



An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan festivalda NKMK madaniyat muassasalarining 8 ta jamoasidan san'atga shaydo 600 nafardan ortiq yoshlar ishtirok etdilar.

Tanlov davomida 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar milliy, zamonaviy, xalq raqslari, estrada raqs san'ati, vokal, orkestr va zarbli cholg'u asboblari, yakkaxon xonandalik hamda xoreografiya yo'nalishlari bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Ijodiy jamoalarning chiqishlarini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Alisher Madraximov boshchiligidagi hakamlar hay'ati baholab bordi. Ular yosh san'atkorlarning nafaqat ijro mahoratiga, balki milliy qadriyat va an'analarni o'zida aks ettirgan o'q'shiqlari, bir-birini takrorlamas liboslari va sahna madaniyatiga ham e'tibor qaratdilar.

– Ushbu ko'rik tanlov 1998-yildan buyon muntazam o'tkazib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida unda bir qator iste'dodlar kashf etildi. Eng asosiysi, kombinat madaniyat muassasalari o'rtasida bo'lib o'tadigan mazkur tanlov turli janrlarda yoshlarning o'z iste'dolarini namoyish etishi uchun keng imkoniyat yaratayapti. Ijodkor jamoalarning izlanishlari aynan mana shu tanlovda o'z bahosiga ega bo'layapti. Bu gal ham tanlovga hakamlar qiliq uchun respublikamizdan taniqli san'at arboblari va madaniyat xodimlari taklif etildi. Bu yosh iste'dod sohiblariga ko'tarinki ruh berishi tabiiy. Bu kabi tanlovlarning o'tkazilishi yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazish, iste'dodlarni aniqlash va ularning madaniy, musiqiy, estetik didini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, – deydi NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi o'rinbosari M.Nurimova.

Festivalning yakuniy natijalariga ko'ra, vokal ansambllar yo'nalishi bo'yicha Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyining "Drujba", bolalar xori va orkestrlar yo'nalishi bo'yicha "So'z" o'zbek xalq cholg'u orkestri birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Xoreografiya yo'nalishi bo'yicha "Shirin" ansambli milliy raqs nominatsiyasida, "Schaftivoye detstvo" ansambli esa xalq raqslari nominatsiyasida "Gran-Pri" sohibi bo'ldi. Estrada va zamonaviy raqslar nominatsiyasida "Farhod" madaniyat saroyining "Sonata" va Uchquduq madaniyat saroyining "Ekspressiya" ansambllari "Gran-Pri" ga sazovor bo'lishdi. Zarbli cholg'u asboblari yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin "Oltin vodi" madaniyat saroyining "Allegro" ansambliga nasib etdi. Estrada solo vokal ijrochiligi yo'nalishida 12 yoshgacha va undan yuqori ijrochilar kategoriyasida Zafarobod qo'rg'onidagi "Yoshlik" madaniyat va sport markazining yosh iste'dod egasi Aysu O'rinbayeva hamda Uchquduq shahridagi "Uchquduq" madaniyat saroyidan Tolebi Nurilbayevlarga "Gran-Pri" topshirildi. O'lib jamoalar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, "Qizilqum san'at g'unchalari - 2025" XVII bolalar festival-tanlovi doirasida hamda O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni munosabati bilan NKMK madaniyat muassasalarida faoliyat olib borayotgan sohaning bir guruh xodimlari "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni va "NKMK faxriysi" unvoni bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov, NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatov, "NKMK jamg'armasi" DM direktori D.Ochilovlar ishtirok etishdi.

Tadbir yakunida ansambllar badiiy havaskorlari va poytaxtdan tashrif buyurgan taniqli san'atkorlar ishtirokidagi gala konsert barchaga manzur bo'ldi.

Dildora KARIMOVA, "NKMK" AJ Matbuot markazi xodimi.



■ Tibbiyot

BOLALARDA ANEMIYA KASALLIGI

Anemiya – bu organizmda kislorodni tashish uchun zarur boʻlgan toʻliq qizil qon tanachalari (eritrositlar) etarli boʻlmagan holat. Qon butun organizmda aylanib, kislorodni barcha toʻqimalar va organlarga etkazib beradi va karbonat angidridni chiqarib tashlaydi. Agar kislorod etarli boʻlmasa, tanada muammolar paydo boʻlishi mumkin. Anemiya turli sabablarga koʻra yuzaga keladi: u irsiy yoki boshqa kasalliklar bilan bogʻliq boʻlishi, ovqatlanish muammolaridan kelib chiqishi yoki tibbiy aralashuvlar natijasida paydo boʻlishi mumkin. Anemiya borligiga shubha qilgan bemorlar ikkilanmasdan, shifokor bilan maslahatlashishi zarur, chunki bu juda jiddiy.



Qizil qon hujayralarining sifatiga yoki miqdoriga turli omillar taʼsir qilishi mumkin. Qon hujayralari yetilishi uchun temir, vitamin B12 va foliy kislotasidan birortasining yetishmasligi anemiyaga olib kelishi mumkin.

Qon hujayralari har kuni yangilanadi – aylanma hujayralarning taxminan 1 foizi oʻladi va yangilari bilan almashiriladi. Agar organizmda temir, B12 yoki foliy kislotasi yetarli boʻlmasa, eskilari parchalanishda davom etadi va yangilari yetarli boʻlmagligidan anemiya paydo boʻladi. Eritrotsitlarning asosiy vazifasi kislorod molekullarini tashishdir. Kislorod organlar va toʻqimalarga gemoglobin – temir tarkibidagi maxsus oqsil orqali yetkaziladi. Oʻrtacha gemogloblin darajasini quyidagi raqamlarda koʻrishingiz mumkin: normal gemoglobin darajasi (litr uchun gramm) yoshga bogʻliq:

- yangi tugʻilgan chaqaloqlarda - 180 dan 240 gacha;
- 1 oydan 5 yoshgacha - 110 dan 115 gacha;
- 5 yoshdan 12 yoshgacha - 110 dan 120 gacha;
- 12 yoshdan 15 yoshgacha - 120 dan 140 gacha.

Anemiyaning eng keng tarqalgan sababi temir tanqisligidir. Bu anemiya bilan ogʻrigan har ikkinchi bemorda uchraydi. Miyaga kislorod yetkazib berish esa aynan qondagi gemoglobinning asosiy vazifasidir. Bu kasallik bilan ogʻrigan va immuniteti past bemorlarda turli infeksiyon xastaliklarga chalinish xavfi yuqori boʻladi. Qon tarkibida organizmning oʻsib rivojlanishi uchun muhim boʻlgan oziq moddalar mavjud. Achinarlisi, homilador ayollarning temir moddasiga boʻlgan talabining ikki karra ortishi oqibatida kelib chiqadigan anemiya soni katta koʻrsatgichlarni tashkil etadi.

Bolalar uchun anemiya xavfli kasallik

Gulshan NURMURATOVA,
“NKMK jamgʻarmasi” DM
Tibbiy-sanitariya qismi shifokori.

Xoletsistit oʻt pufagining yalligʻlanishi boʻlib, notoʻgʻri ovqatlanish, surunkali qabziyat, turli xil infeksiyon xastaliklar tufayli kelib chiqadi.

XOLETSISTIT NIMA?

Bemorning oʻng biqinida – qovurgʻasi ostida toʻsatdan qattiq ogʻriq paydo boʻladi. Koʻngil aynishi, qusishi mumkin. Tana harorati biroz koʻtariladi. Baʼzida ogʻriq kuchayib, oʻng qoʻl va oʻng kurakka tarqaladi. Koʻp hollarda kasallikning ikkinchi yoki uchinchi kuni teri va koʻz oqi sargʻayadi. Siydik qizgʻish-sariq rangga kiradi. Oʻtkir xoletsistit aksariyat hollarda yogʻli taomlarni meʼyoridan ortiq koʻp isteʼmol qilgandan keyin boshlanadi. Bemor ogʻriq boshlanishi bilanoq uyga vrach chaqirishi kerak. Vrach kelgunicha grelka qoʻyishi, meʼdasini yuvishi yoki surgi dorilar ichishi aslo mumkin emas.

Oʻtkir xoletsistit bilan ogʻrigan bemorlar kasalxonada davolanishadi. Surunkali xoletsistit koʻpincha oʻtkir xoletsistitning bir necha bor xurujidan soʻng kuzatiladi. Ayniqsa, yogʻli ovqat isteʼmol qilgandan soʻng ogʻriq zoʻrayadi. Qorinning yuqori qismida ogʻriq seziladi. Agar bemor davolanmasdan beparvo yuraversa, unda oʻt-tosh kasalligi yuzaga keladi.

Sekin-asta rivojlanadigan oʻt-tosh kasalligida bemor oʻng qovurgʻasi ostida bir necha yillar davomida kuchsiz ogʻriqni his qilub yuradi. Ogʻzi taxirlashib, jigʻildoni qaynaydi. Bu alomatlar oʻt pufagida tosh paydo boʻlganini bildiradi.

Xoletsistitni davolashda makkajoʻxori popugi yordam beradi. Undan qaynatma tayyorlash uchun 2-4 qoshigʻi bir yarim stakan qaynoq suvda yarim soat mildirab qaynatiladi. Keyin dokada suziladi. Uch-toʻrt soatda bir marta ikki osh qoshiqdan ichiladi.

Oʻt pufagida tosh yigʻilganda kashnich va uning ildizini qaynatib ichish lozim. Ushbu qaynatma oʻt pufagidagi toshni tushirishga yordam beradi.

Baxtigul UTEMURATOVA,
TSB kattalar poliklinikasi
sex vrachi.

■ Sport

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan har yili faxriylar oʻrtasida mini-futbol boʻyicha “NKMK ochiq turniri” oʻtkazib kelinadi. Bu yil kombinat maʼmuriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan ushbu turnir uzoq yillar davomida Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mehnat qilgan Oʻzbekiston Qahramoni Anatoliy Nikolayevich Panin xotirasiga bagʻishlab tashkil etildi.



FAXRIYLAR BELLASHDILAR

Umrining oxirigacha Uchquduq shahrida yashab, “Sharqiy” konida ekskavatorchi boʻlib ishlagan, Vatanimizning oltin “xirmoni”ga hissa qoʻshgan Anatoliy Panin togʻ-kon sanoatining fidoyi insonlaridan edi. U nafaqat konchilik sohasida, balki sportda ham boshqalarga namuna boʻlgan. Bir qancha shogirdlari bilan qator sport musobaqalarida faol qatnashgan. Qaysi yashil maydonda toʻp surmasin, yosh avlod vakillariga madaniyati, axloqi, fidoiyligi bilan oʻrnak boʻlib kelgan.

25-27-aprel kunlari Navoiy shahridagi “Soʻgʻdiyona” oʻyingohida boʻlib oʻtgan turnirda Navoiy, Samarqand, Xorazm, Fargʻona, Buxoro viloyatlaridan jami 14 ta jamoa ishtirok etdi.

– Faxriylarimiz doimo jamiyatimizda sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish tarafdori boʻlib kelishgan. Sport yuksak

Azamat ZARIPOV.

Poytaxtimizdagi “Yangi Oʻzbekiston” bogʻida VII Toshkent xalqaro marafoni boʻlib oʻtdi. Ishtirokchilar marafon (42 kilometr), yarim marafon (21 kilometr) va 10 kilometr. masofaga yugurish trassalarida “Yangi Oʻzbekiston” bogʻiga tutash yoʻl boʻylab yugurdilar.

SOVRINDORLAR SAFIDA



Uch kilometr masofaga yugurish esa bevosita bogʻ hududida tashkil etildi. Unda jami 9 ming nafardan ortiq, shu jumladan, 51 davlatdan 1 ming 246 nafar xorijlik professional sportchilar va havaskor yuguruvchilar ishtirok etdi.

“NKMK jamgʻarmasi” DM “Soʻgʻdiyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasi qorovuli Oʻktamjon Tojiev 50 yoshdan yuqorilar oʻrtasida 10 kilometrta yugurish bahslarida faxrli 3-oʻrinni egalladi.

Toshkent marafoni xalqaro sport tadbiri sifatida tan olingan va xalqaro engil atletika federatsiyalari assotsiatsiyasi musobaqalari taqvimiga kiritilgan.

Sohiba QILICHEVA,
“Soʻgʻdiyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasi direktori.

■ Bilib qoʻygan yaxshi

KONLARNING YANGICHA NOMLANISHI

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va meʼyorlariga muvofiqlashtirish toʻgʻrisida”gi qarori bilan bir qancha foydali qazilma koni nomlari davlat tili qoida va meʼyorlariga muvofiqlashtirildi. Mazkur kon nomlarining bir qismi oʻtgan sonda chop etilgan edi. Qolgan konlar nomlarini eʼtiboringizga havola etamiz.

T/r	Konning amaldagi nomi	Konning davlat tili qoida va meʼyorlariga muvofiqlashtirilgan nomi
1	Bulutkan	Bulutkon
2	Davon	Dovon
3	Daugyztau	Dovgʻiztov
4	Djamankon-Bijankara	Yomonkon-Bijonqora
5	Djantuar	Jantuvar
6	Djengeldinskaya plo-shad	Jongeldi
7	Yogdu	Yogʻdu
8	Yelsoy	Yelsoy
9	Joldas	Yoʻldosh
10	Zapadnyy Amantaytau	Gʻarbiy Omontoytov
11	Zarkatlam	Zarqatlam
12	Oltinrudnaya	Oltinmaʼdan
13	Karakata-Aksayskaya	Qariqota-Oqsoy
14	Karakuduk	Qoraquduq
15	Karaungur	Qoraungur
16	Kaskyrtau	Qashqirtov
17	Katta-Ich	Kattaej
18	Kendiktyube	Kindiktepa
19	Kolchiktau	Koʻlchiktov
20	Kumtosh	Qumtosh
21	Kushkuduk	Qoʻshquduq
22	Kiziltash	Qiziltosh
23	Lyavlyakan	Lovlikon
24	Magribkon	Magʻribkon
25	Meylisay	Meylisoy
26	Mullalinskaya	Moʻlali
27	Muruntauskoye	Muruntov
28	Myutenbay	Mutenboy
29	Nukrakon	Nuqrakon
30	Roxatskaya	Rohat
31	Sarmich	Sarmish
32	Saribatir	Saribotir
33	Severnyy	Shimoliy
34	Severniy Asaukak	Shimoliy Asovqoq
35	Severniy Daugyztau	Shimoliy Dovgʻiztov
36	Severniy Kanimex	Shimoliy Konimex
37	Sredinnsh	Oʻrtaliq
38	Tamdybulak	Tomdibuloq
39	Taskazgan	Toshqazgan
40	Temirkabuk	Temirqapigʻ
41	Uzunbulak	Uzunbuloq
42	Uzunkuduk-II	Uzunquduq

■ “101” xabar qiladi

OYLIK DOIRASIDA targʻibot va tashviqot ishlari olib boriladi

Koʻp yillik tahlillar bahor va yoz mavsumida yongʻin xavfsizligini taʼminlash boʻyicha profilaktika tadbirlari kuchaytirilmasa koʻngilsiz hodisalar keskin ortishi mumkinligini koʻrsatmoqda. Xususan, yongʻinlarning 75 foizdan koʻprogʻi aholi turar joylarda sodir boʻlib, ularga asosan elektr moslamalari va gaz jihozlaridan notoʻgʻri foydalanish sabab boʻlmoqda.

Maʼlumki, joriy yilning 15-mart kundan 15-aprel kunigacha respublikamiz hududida “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi” oʻtkazildi. Fuqaro muhofazasi boʻyicha zilzila, sel toshqinlari, koʻchiklar hamda ovqatdan zaharlanish-botulizm kasalliklari, yongʻinlar kabi favqulodda holatlar sodir boʻlishining oldini olish maqsadida korxona, tashkilotlarda, shuningdek, yangi qurilish obyektlarida ishlayotgan ishchi-xizmatchilar hamda fuqarolar oʻrtasida targʻibot-tashviqot ishtarini kuchaytirishga eʼtibor qaratildi.

Oylik davomida fuqaro muhofazasi boʻyicha hamkor tashkilotlar: Zarafshon shahar IIB, Tibbiy-sanitariya boʻlimiga qarashli SEO va JSB, Gaz taʼminoti boʻlimi,

“Zarafshon suv taʼminoti korxonasi” DUK, shahar aloqa xizmati, MKBga qarashli Alohida harbiylashtirilgan kon qutqaruv vzvodi va boshqa qator tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy mashgʻulotlar oʻtkazildi.

Bunday mashgʻulotlarni oʻtkazishdan koʻzlangan maqsad fuqarolarda favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi, shuningdek, insonlar va moddiy boyliklarni xavfsiz evakuatsiya qilish yuzasidan koʻnikma hosil qilishdan iboratdir.

Samad ARSLONOV,
“Markaz” KB OYOXTEB inspektori,
kapitan.
Ulugʻbek, NAMOZOV,
boʻlim inspektori, leytenant.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta roʻyxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy koʻchasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamgʻarmasi” DM boʻlinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati boʻyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Navbatchi: **Dildora KARIMOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qogʻoz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 210. 2025-yil 1-may 17:00 da chop etishga topshirildi.